

BUG'DOYO'SIMLIGI HAQIDA. UNING FOYDALI XUSUSIYATLARI. ZARARKUNANDA VA KASALLIKLARIGA QARSHI KURASH CHORALARI

A.Abdulxamidov

*Andijon qishloq xo'jaligi va Agrotexnologiyalar instituti
O'simliklarni himoyasi, agrokimyo va tuproqshunoslik fakulteti tyutori*

U.Ergashev

*Andijon qishloq xo'jaligi va Agrotexnologiyalar instituti
O'simliklarni himoya qilish ta'lim yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Aholining un va un maxsulotlariga bo'lgan talabini qondirishda bug'doy o'simligidan yuqori va sifatli hosil olish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Bug'doy o'simligini yetishtirishda duch kelinadigan bug'doy kasalliklari va ularni yetishtirish agrotexnologiyalari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Bug'doy, yumshoq bug'doy, qattiq bug'doy, qishki va bahorgi bug'doy, davolash, epidermis, urocytis tritici, o'g'itlar, puccinia striformis kasalliklari.

Bug'doy – g'alladoshlar oilasiga mansub o'tsimon o'simliklar turkumiga kiruvchi eng qadimiy va hozirda unyoning ko'pgina mamlakatlarida ekiladigan asosiy don ekini. Bug'doy o'simligini 30 ga yaqin yovvoyi va madaniy turlari bor. Jahon dehqonchiligida asosan Yumshoq bug'doy yoki Oddiy bug'doy va Qattiq bug'doy ekiladi. Qolgan turlari esa juda kam miqdorda ekiladi yoki butunlay ekilmaydi. Ko'pgina bug'doy turlari (Ararat, Maxa, Timofeyev bug'doyi, Urartu, Fors bug'doyi va boshqalar) ning vatani Zakavkazyedir.

Sug'oriladigan mintaqalarda kuzgi Bug'doyningni makkajo'xori, g'o'za, kartoshka va boshqa dala ekinlaridan bo'shagan unumdor yerlarga ekish tavsiya etiladi. Nordon va sho'rlangan tuproqda yaxshi o'smaydi. Ekish usuli yoppasiga qatorlab (qator orasi 12—15 sm) yoki tor qatorlab (qator orasi 7—8 sm) ekiladi. Ekish me'yori — lalmi yerlarda gektariga 70–110 kg, sug'oriladigan mintaqalarda gektariga 170–200 kg, ekish chuqurligi 4—6 sm; kuzgi B. chuqurroq ekiladi, ekish me'yori 10—15% ortiq olinadi, urug'lik ekish oldidan saralanib, dorilanadi. O'zbekistonning sug'oriladigan sharoitida Bug'doy ekiladigan yerga ekish oldindan 10—15 t go'ng, 40–80 kg fosfor, 40–100 kg azot, kaliy solinadi, o'suv davrida ham ekinzor o'g'itlanadi, suvli yerlarda o'suv davrida 2—3-marta sug'oriladi, O'zbekistonda pishib yetilgan bug'doyzorlar yoppasiga bir yo'la g'alla kombaynlari bilan o'rib yig'ib olinadi.

Qishki va bahorgi bug'doyning aksariyat navlari immunitetni zaiflashtiradi. Shuning uchun, siz tez-tez butalarda turli xil kasallik belgilarini ko'rishingiz mumkin. Davolash hasharotlar bilan amalga oshirilishi kerak. Dori-darmonlarni tanlashda kasallikning xususiyatlaridan boshlash kerak, chunki ularning ba'zilari vaziyatni yanada kuchaytirishi mumkin (agar lezyonning tabiati noto'g'ri aniqlangan bo'lsa). Bug'doy qo'ziqorin, bakterial va yuqumli kasalliklarga ta'sir qilishi mumkin. Ularga qarshi kurash haqida batafsil ma'lumot quyida tavsiflanadi.

Poya qorakuya kasalligi-Urocystis tritici Tarifi. Kasallikni asosiy belgilaridan biri shunday iboratki, poyada, bargda va barg qo'ltig'ida uzunasiga ketgan bo'rtib chiqqan chiziqlar xosil qiladi. Bu chiziqlarni pangi avvalo och oqimtir rangda bo'ladi, keyinchalik qoraya borib, qo'rg'oshinli kul panga kiradi. Epidermisni qurishi natijasida chiziqlar yoriladi, ichidagi qora teliosporalar ko'rinib qoladi, chiziqlar bir necha millimetrdan bir necha santimetrgacha bo'ladi.

Xayot kechirishi. Kasallik qo'zg'atuvchining teliosporalari 1-5 donagacha bir joyga to'plangan, markazga joylashgani spora beradigan teliospora bo'lib, uning atrofiga joylashganlari (5-20 tagacha), ko'pincha (10ta) spora bermaydigan teliosporalar xisoblanadi. Spora beradigan teliosporalar sharsimon va ellips shaklida, jigir rang, qo'g'ir pangda bo'ladi.

Zarari. Kasallikka halingan o'simlik o'sishdan orqada qoladi, boshqoq o'rnida buralgan to'qima massasi xosil bo'ladi.

Agrotexnik tadbirlar: Yerni 30-32 st chuqurlikda shudgorlash, o'simlik qoldiqlaridan tozalash. Almashlab ekish (2-3 yilgacha) makkajo'xori emaslik, sug'orish, urug'ni tuproq xarorati 9-12 selsiyga yetganda ekish. Urug'ni tuproq turiga qarab 4-5, 6-8 st chuqurlikka ekish, begona o'tlardan tozalash. O'g'itlash (mineral va organik) ko'proq fosforli va kaliyli o'g'itlar berish agrokimyokartogramma asosida o'g'itlash.

G'alla ekinlarning sariq zang kasalligi-Puccinia striiformis West. Tarifi: Bu bug'doy, arpa va yovvoyi g'allaguli o'simliklarning Markaziy Osiyoda eng ko'p tarqalgan kasalliklardir. Bunda o'simlikning barglarida xosil bo'ladi. Bu dog' yostiqliklari keyinchalik barf epidermis bilan qoplangan qora yostiqliklarga aylanadi. Yostiqliklar qator qator nuqtali chiziqli shaklida joylashadi.

Xayot kechirishi: Bu kasallik baxor seryongin va salqin kelgan yillari avj oladi, asosan baxorda va yozning birinchi yarmida. Oraliq o'simligi aniqlanmagan. Sariq zang kasalligini Puccinia glumarum zamburug'I qo'zg'atadi.

Kasallik bilan bug'doy, suli va arpaning xamma yer usti qismi zararlanadi. Sariq zang kasalligida 2 ta davr kuzatiladi. **Uredosporalar va Teleytosporalar.**

Uredospora yostiqliklari juda kishik bo'lib, aloxida olganda ko'z bilan ko'rib bo'lmaydi. Uredosporalar va Teleytosporalar yostiqliklari to'g'ri bir qator joylashgan va uzunchoq qatorni xosil qiladi. Uredosporalar lemonsimon sariq panga ega

bo;ladi.Sariq zang kasalligini qo'zg'atuvchi kuzgi bug'doyda va ko'p yillik donli begona o'tlarda uredomitseliy xolida qishlaydi.Uredinosporalari 100% namlikda 1 dan 25 selsiy darajagacha bo'lgan xaroratda unib chiqadi,ammo 11-13selsiy darajali xarorat ularning unishi uchun eng qulay bo'lib xisoblanadi.O'simlikni zararlashdan boshlab to uredinosporalar xosil bo'lguncha 10-15 selsiy darajali xaroratda kasallikning inkubatsion davri 10-11 kunga cho'ziladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. A.Sh Hamrayev, A.J.Kojevnikova “O'simliklarni himoya qilish” Andijon 2017 xayot nashriyoti.
2. Arslanov M.T, Aliyev Sh.K O'quv qo'llanma Toshkent 2020 Qishloq Xo'jaligi ekinlari zararkunandalari va kasalliklari ularning tarqalishini xisobga olish.
3. A.Sheraliyev “Umumiy va qishloq xo'jalik fitopatologiyasi” talqin nashriyoti Toshkent 2008.
4. V.I.Zuyev, A. A Ataxo'jayev. “Himoyalangan yer sabzavotchiligi” 2018. Abdullayeva X.Z., Raxmonova G.R. sabzining zararkunandalari va uning ekologik xususiyatlari. Fan va amaliyot byulleteni jurnali -2018.-№9.
5. Abdullayeva X.Z., Raxmonova G.R.Sabzining foydali xususiyatlari va zararkunandalari // Internauka jurnali.
6. Abdullayeva X.Z., Raxmonova G.R., Parpieva M.K Sabzining foydali xususiyatlari va etishtirish texnologiyalari // Agro iml jurnali.
7. Abdullayeva X.Z., Rahmonova G.R., A'zamov A.A. Karamning foydali xususiyatlari va zararkunandalariga qarshi kurash // Ekologiya xabarnomasi jurnali.